

**D'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIIY XAVFSIZLIK VA
MUDOFAA UNIVERSITETINING QUSUQLIKDAGI
QO'SHINLAR INSTITUTI**

**OLIIY HARBIIY TA'LIM
MUASSASALARIDA CHET
TILI O'QITISH SAMARADORLIGINI
OSHERISHNING NAZARIY VA AMALIY
ASOSLARI**

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANI



**21 NOYABR
CHIRCHIQ 2025**

**VIKI TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA MUAMMOLI O'QITISH: INNOVATSION
MODEL VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI**

Yunusova Dildora Hamroqulovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalari xususan, viki platformalari bilan integratsiyalashgan muammoli o'qitish (Problem-Based Learning, PBL) usuli tahlil qilinadi. Muammoli o'qitishning mohiyati, bosqichlari va viki texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni chuqur yoritiladi. Maqolada viki asosidagi PBL modelining strukturasiga misol keltirilib, uning afzalliklari ham tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar uchun yangi pedagogik imkoniyatlar yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: muammoli o'qitish, viki texnologiyalari, PBL modeli, hamkorlikda o'qitish, reflektiv ta'lim, axborot savodxonligi, raqamli kompetensiya.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlaydigan, muammoni hal eta oladigan va o'z fikrini asoslay oladigan shaxsni shakllantirishni maqsad qiladi. Shu sababli, an'anaviy "ma'ruzachi-o'quvchi" modelining o'rmini talabani faol ishtirokchiga aylantiruvchi, interaktiv yondashuvlar egallamoqda. Shulardan eng samaralilaridan biri bu muammoli o'qitish (Problem-Based Learning- PBL) hisoblanadi. PBL o'quvchini tayyor javoblarni eslab qolishga emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilib, yechim topishga undaydi.

**OLIV HARBIV TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILI O'QITISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

197



Zamonaviy sharoitda bu jarayonni viki texnologiyalari bilan birlashtirish, ya'ni "viki asosidagi muammoli o'qitish modeli"ni joriy etish ta'limda interaktivlik, refleksiya va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi (Dolmans 2005).

Muammoli o'qitishning mohiyati

Muammoli o'qitish bu o'quvchilarga tayyor javoblar emas, balki muammoli vaziyatlar taqdim etish orqali ularni mustaqil izlanish, tahlil qilish va qaror qabul qilishga yo'naltiradigan o'qitish modeli hisoblanadi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi (facilitator), talaba esa faol ishtirokchi sifatida bilimni o'zi kashf etadi.

Dolmans va hamkasblarining (2005) ta'kidlashicha, PBL talabalarining tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, hamkorlikda ishlash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Hmelo-Silver (2004) esa bu usulni "o'rganish jarayonini faol va maqsadli bilish faoliyatiga aylantiruvchi samarali metod" sifatida baholaydi. Muammoli o'qitish jarayonida odatda quyidagi bosqichlar ko'zda tutiladi: muammoni aniqlash va tahlil qilish, maqsadni belgilash, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, yechim ishlab chiqish, yakuniy natijalarni taqdim etish va muhokama qilish.

Bu usul an'anaviy ta'limdan farqli ravishda talabani passiv tinglovchidan faol izlanmachi, hamkor sifatida ko'rishga undaydi. Talabalar o'z bilimlarini rivojlantirishi bilan birga, o'quv jarayonida mas'uliyatni ham o'z zimmlariga oladilar. Shu tarzda ta'lim jarayoni nafaqat ma'lumot uzatish, balki bilimni amaliyot bilan bog'lash, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Viki texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni

Bugungi raqamli asrda ta'lim jarayoni faqat an'anaviy usullar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. O'quvchilarning e'tiborini jalb etish, ularni faol ishtirokchiga aylantirish uchun interaktiv texnologiyalardan foydalanish zarur. Shunday vositalardan biri viki texnologiyalardir. "Viki" so'zi gavaiy tilidan olingan bo'lib, "tez" yoki "birgalikda bajariladigan" degan ma'noni anglatadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga onlayn hamkorlikda ma'lumot yaratish, tahrir qilish, fikr bildirish va bilim almashish imkonini beradi.

Viki texnologiyalari ta'limda yangi yondashuvlar uchun keng imkoniyat yaratadi. Eng mashhur viki platformalardan biri bu Wikipedia bo'lib, u dunyo bo'yicha millionlab foydalanuvchilar tomonidan yaratilib, tahrir qilinadi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarida Wikispaces, Google Sites, PBworks, WikiEdu kabi platformalar o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida faol qo'llanilmoqda.

Viki muhiti o'quvchilarni birgalikda ishlashga undaydi. Masalan, o'qituvchi dars davomida ma'lum mavzu bo'yicha loyiha topshirig'ini beradi va talabalarni kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruh viki sahifasida o'z tadqiqotini olib boradi: manbalar topadi, matn yozadi, rasmlar yoki diagrammalar joylashtiradi. Guruh a'zolari bir-birining ishini o'qib chiqadi, zarur joylarini tahrirlaydi yoki izoh qoldiradi. Shu tarzda, talabalar o'zaro fikr almashish, muhokama qilish va tahrir orqali bilimni birgalikda yaratadilar.

Viki texnologiyalarining ta'limdagi o'rni shundaki, u o'quvchilarda bir vaqtning o'zida bir nechta muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ulardan eng muhimi axborot savodxonligi. Talabalar ishonchli manbalarni topish, ulardan to'g'ri foydalanish va havoalarni keltirishni o'rganadilar. Shuningdek, ijodkorlik va raqamli madaniyat ko'nikmalari ham rivojlanadi, chunki ular matnni tahrir qilish, vizual elementlar qo'shish, multimedia vositalaridan foydalanishni o'zlashtiradilar.

**OLIV HARBIV TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILI O'QITISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

198

Bundan tashqari, viki muhiti o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Talabalar birgalikda ishlash, mas'uliyatni taqsimlash, o'zaro hurmatda fikr almashish, tanqidni konstruktiv tarzda qabul qilishni o'rganadilar. Viki sahifasidagi har bir o'zgarish tarixda saqlanadi, bu esa har bir ishtirokchining hissasini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, bu muhitda adolatli baholash tizimini joriy etish ham osonlashadi. Viki texnologiyalarining yana bir muhim jihati bu refleksiya imkoniyatidir. Talabalar o'z yozganlarini qayta o'qib, tahrir qilish orqali o'z bilimini baholaydilar, xatolarini anglaydilar va o'z ustida ishlashga intiladilar. Natijada, ularning o'z-o'zini tahlil qilish va tanqidiy fikrlash salohiyati oshadi.

Shu tarzda, viki texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini samarali qiladi, balki uni yanada demokratik, ochiq va ijodiy muhitga aylantiradi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy ta'limning eng asosiy maqsadlaridan biri bu talabaning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Rasmussen (2013) fikricha, viki texnologiyalar talabalarga o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalash, hamkorlikda ishlash va bilimni mustaqil qurish imkonini beradi. Shuningdek, Alzahrani va Woollard (2012) tadqiqotida viki vositalari talabalarda yozma nutq madaniyatini rivojlantirib, o'zaro tahrir va baholash ko'nikmalarini shakllantirishini ko'rsatgan. Masalan, o'qituvchi "Ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar ongiga ta'siri" mavzusida viki loyihasini tashkil qiladi. Har bir guruh o'z sahifasida tahlil, misollar, statistika joylashtiradi; boshqa guruhlar esa izoh beradi, qo'shimcha faktlar kiritadi. Shu tarzda talabalar o'rganish jarayonida axborotni mustaqil tahlil qilishni o'rganadi, bu esa ularning tanqidiy fikrlashini mustahkamlaydi (Altanopoulou, 2018).

Viki asosidagi muammoli o'qitish modeli

Viki texnologiyalarni muammoli o'qitish jarayoniga qo'llash natijasida interaktiv, hamkorlikka asoslangan, reflektiv ta'lim muhiti yaratiladi. Bunda talabalar viki platformasi orqali muammoni muhokama qiladilar, turli yechimlarni taklif etadilar va ularni birgalikda tahlil qiladilar. Jarayon quyidagicha kechishi mumkin: o'qituvchi viki sahifasida muammoli vaziyatni taqdim etadi, talabalar guruhlariga bo'linib har biri o'z tahlilini yozadi; keyin viki muhiti orqali bir-biringiz fikrlarini o'qib, izoh qoldiradilar, kerak bo'lsa tahrir qiladi; yakunida umumiy yechim shakllantiriladi va taqdim etiladi. Bu jarayon talabalarni nafaqat ma'lumot bilan ishlashga, balki o'z fikrini asoslashi, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu model nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki talabalarni mas'uliyat, hamkorlik va o'z fikrini dalillar bilan asoslashga o'rgatadi. Viki muhiti orqali talabalar o'qituvchi bilan birgalikda o'rganish jarayonining sub'ektiga aylanadilar (Rasmussen, 2013).

Afzalliklar

Viki asosidagi PBL modelining bir qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, bu yondashuv talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Ular dars davomida faqat tinglovchi emas, balki faol ekspert va muhokamachi bo'ladi. Ikkinchidan, hamkorlik va mas'uliyat hissi kuchayadi talabalar guruhda ishlash jarayonida o'z roli va hissasini anglaydilar. Uchinchi jihat refleksiya va tahliliy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi: talabalar o'z yozganlarini qayta ko'rib, baholash, tahrir qilish jarayonida o'rganadilar. To'rtinchidan, viki texnologiyalari orqali axborot savodxonligi va raqamli ko'nikmalar rivojlanadi. Beshinchidan esa, yozma nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu afzalliklar ta'limni yanada ochiq, interaktiv va amaliy jihatdan boy muhitga aylantirishga imkon beradi. Shu bilan birga hamkorlik va mas'uliyat hissini kuchaytiradi, jamoaviy muvaffaqiyat individual hissaga bog'liq bo'ladi (Hmelo-Silver, 2004).

Xulosa

OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

199

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY
XAVFSIZLIK VA MUDOFAA
UNIVERSITETINING QURULIKDAGI
QO'SHINLAR INSTITUTI



THE INSTITUTE OF GROUND FORCES
OF THE UNIVERSITY OF DEFENSE AND
MILITARY SECURITY OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Viki texnologiyalarini muammoli o'qitish bilan birlashtirish ta'lim tizimida yangi bosqichni boshlab beradi. Ushbu model talabalarni mustaqil izlanish, hamkorlikda o'rganish va ijodiy fikrlashga undaydi. O'qituvchi esa rahbar va yo'naltiruvchi rolida chiqib, o'quvchilarni faollikka undaydi. Natijada, o'rganish jarayoni faqat bilim olish emas, balki uni amaliyot bilan bog'lash, dalillarga asoslangan tahlil qilish va raqamli hamkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, viki asosidagi PBL modeli zamonaviy ta'limda keng qo'llanilishi lozim bo'lgan istiqbolli pedagogik yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alzahrani, I., & Woollard, J. (2012). The potential of wiki technology as an e-learning tool in Science and Education. ERIC.
2. Altanopoulou, P. (2018). Assessing acceptance toward wiki technology in the higher education context. International Review of Research in Open and Distributed Learning.
3. Dolmans, D. H., Grave, W., Wolfhagen, I., & van der Vleuten, C. (2005). Problem-based learning: Future challenges for educational practice and research. Medical Education.
4. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266.
5. Rasmussen, A. (2013). The application of wiki technology in medical education. Medical Teacher, 35(3), 269–275.
6. Isamiddinova, S.F.(2021). Ways of implementing wiki technology in teaching English. The American Journal of English Language Teaching, 3(6), 22–27.



52.	SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH TAJIBOYEVA BARNO BAXADIR QIZI	171
53.	INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI TOSHEMIROVA SHAHZODA SHERXON QIZI	174
54.	THE PROBLEMS OF TEACHING INTERCULTURAL COMPETENCE FOR UNDERGRADUATE UZBEK STUDENTS SHONAZAROV MANSUR EGAMKULOVICH	176
55.	COMPARATIVE ANALYSIS OF WORD FORMATION PROCESSES IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. MIRZAYEVA OLIMA RAHMONALI QIZI	179
56.	EFL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING DOLZARBLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI PULATOVA ZULFIYA ABDUAZIZOVNA JO'RAQULOV A.G'	182
57.	INGLIZ TILIDA SO'Z TURKUMLARINING AHAMIYATI TILLOYEVA DILNOZA HABIBULLO QIZI	185
58.	INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE TURAEV ABBOS NURIDDINOVICH	188
59.	SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI ILOVALAR YORDAMIDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH USMANOVA NODIRA KHRAJITDINOVNA	192
60.	ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЫЖИНА ВИТА АЛЕКСАНДРОВНА	194
61.	VIKI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MUAMMOLI O'QITISH: INNOVATION MODEL VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI YUNUSOVA DILDORA HAMROQULOVNA	197
62.	ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ РАЗЛИЧНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ АБДУМАЛИКОВА ГУЗАЛЬ ХАМЗАЕВНА	200
63.	ЖЕНЩИНЫ-ПИСАТЕЛЬНИЦЫ XIX ВЕКА: ГОЛОСА, ПРОРОСШИЕ СКВОЗЬ МОЛЧАНИЕ ИБРАГИМОВА САЙЁРА САЙДУЛЛАЕВНА,	202
64.	РАЗВИТИЕ РЕЧИ СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЖУРАЕВА Х.Х.	206
65.	РЕАЛИЗАЦИЯ ГРАДУОНОМИИ В РЕЧИ: КРОСС-ЯЗЫКОВОЙ ПОДХОД МАЗМУНА РАХИМОВНА ОТАБОЕВОЙ PhD, УСМОНАЛИЕВА ЗУЛХУМОР	208
66.	ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ РУССКИХ УЧЕНЫХ СЕВАРА ЗУФАРОВА МУРАТДЖАНОВНА НОДИРА ЮСУПОВА ХУРШИД КИЗИ	213
67.	РАЗВИТИЕ ТЕОРИИ ЯЗЫКОВЫХ МОДЕЛЕЙ БАЗАРОВ ОЙБЕК ОДИЛОВИЧ	216
68.	СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЕННОГО ДИСКУРСА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ РУЗИБОЕВА НАЗИРА КАРШИБОЕВНА	224